

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.A.20.11 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA–QURILISH UNIVERSITETI

SEYDULLAEV SULEYMEN SHINBERGENOVICH

**JANUBIY OROL BO‘YI MINTAQASI SHAHARLARINING
ME‘MORIY-REJAVIY YECHIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**18.00.02– Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi**

**ARXITEKTURA bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus–2025

**Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on architecture**

Seydullaev Suleymen Shinbergenovich

Janubiy Orol bo'yı mintaqasi shaharlarining me'moriy-rejaviy yechimini
takomillashtirish..... 3

Сейдуллаев Сулеймен Шынберенович

Совершенствование архитектурно-планировочного решения городов
Южного Приаралья.....

Seydullaev Suleymen Shinbergenovich

Enhancing the architectural and urban planning solutions for cities in the
Southern Aral Sea region.....

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.A.20.11 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA–QURILISH UNIVERSITETI

SEYDULLAEV SULEYMEN SHINBERGENOVICH

**JANUBIY OROL BO‘YI MINTAQASI SHAHARLARINING
ME‘MORIY-REJAVIY YECHIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**18.00.02– Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi.**

**ARXITEKTURA bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huziridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/A111-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasining <http://www.karsu.uz/interaktiv-xizmatlar/karsu-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/122-ixtisoslashgan-kengashlar.html> hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamatmusayev Toxir Shaydulovich
arxitektura fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Durdiyeva Gavxar Salaevna
arxitektura fanlari doktori, professor

Yunusov Shokir Mamatovich
arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.07.2024.A.20.11 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning «___» _____ 2025 yil, soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Akademik Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel. +99861 223-60-47; faks: +99861 223-60-78; web: www.karsu.uz; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ -raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Akademik Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel. +99861 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi).

J.K.Shnekeyev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, arx.f.d., dotsent

B.Yu.Kidirbayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, arx.f.b.f.d. (PhD), dotsent

A.T.Ilyasov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktorligi dissertatsiyasi (PhD) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda iqlimiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari murakkab hududlarda insonlarning yashash sharoitlarini yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda ekologik falokatining oqibatlari, shaharlarning infratuzilmasidagi muammolar, iqtisodiy rivojlanishdagi cheklovlar va aholining turmush darajasini yaxshilash zarurati hamda mintaqalarning me'moriy-rejaviy yechimlarni takomillashtirishda muammolarga duch kelinmoqda. Bu borada shaharlarning me'moriy-rejaviy tuzilishini zamonaviy urbanistik yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish, shaharlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va aholining hayot sifatini oshirishga qaratilgan amaliy yechimlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda shahar infratuzilmasining eskirishi, transport tizimlarining samarasizligi, yashash muhitining noqulayligi va iqlim o'zgarishlariga moslashish zarurati shaharlarning me'moriy-rejaviy yechimlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda va ushbu yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda shaharlarning tarixiy va madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish, zamonaviy urbanistik standartlarga mos keladigan yechimlar ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ekologik jihatdan noqulay hududlarning rejaviy yechimlarini takomillashtirish, hududlarda barqaror yashash sharoitini yaratish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. "Orol fojiasining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va janubiy Orol bo'yi mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash maqsadida barcha sa'y-harakatlarni birlashtirish zarur".¹ Bu borada shaharlarning bugungi holatlarini tahlil qilish va baholash, ularning rejaviy-strukturaviy tuzilishini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10-yanvardagi PF-5623-son "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 19 maydagi PQ-4718 son "Hududlarda ko'p qavatli binolar qurish ishlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 11 noyabrdagi PQ-4889 son "2020-2023 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 18 martdagi PQ-172 son 2022-2026 yillarda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek sohaga doir boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amaliy jihatdan bajarishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqidan. 2021 yil.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda, innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Janubiy Orol boʻyi mintaqasida shaharlarning shakllanishiga asos boʻlgan qadimgi davr, oʻrta asr va undan keyingi davrlar shaharsozligi va meʼmoriy-rejaviy yechimlar, landshaft yechimlari haqida quyidagi tadqiqotchilar eʼtiborida boʻlib kelgan: V.M. Masson², M.K. Axmedov³, D.A. Nozilov⁴, A.S. Uralov⁵, T.Sh. Mamatmusaev⁶, Sh.Nurmuxammedova,⁷ Z.X.Adilov⁸, Z.E.Matniyazov⁹, M.M.Kashiripoor¹⁰, Sh.S.Reyimbayev¹¹, J.K.Shnekeyev¹², N.Abubakr¹³, B.Yu.Kidirbaev, A.M.Salimov, N.Zarimov, T.Mambetullayev, S.Masharipova, O.Masharipov, N.Kaliev, S.Pirniyazov va boshqalar.

Murakkab ekeolgik sharoitlarda shaharlarni loyihalash va meʼmoriy-rejaviy yechimlarni takomillashtirishga oid quyidagi mavzularda olimlarning olib borgan ilmiy ishlari muallif tomonidan koʻrib chiqilgan: V.M Firsanov¹⁴ issiq-quruq iqlimli mintaqadagi shaharlarning shakllanishi toʻgʻrisida; Le Korbyuze¹⁵, M.G.Barxin, A.E.Gutnov, A.V.Ikkonikov, Norman Foster, Kan Sao, R.S.Mukimov - jahon arxitekturasi va shaharsozligining XX asrdagi yoʻnalishi va zamonaviy jamoat markazlari, shaharsozlikning xususiyatlari haqidagi asarlari oʻrganilgan.

Orol boʻyi mintaqasi boʻyicha mintaqadagi turistik marshrutlar va obyektlarining landshaft yechimlari, Qoraqalpogʻistonning zamonaviy arxitekturasi, jamoat va ijtimoiy binolari arxitekturasi boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

² Массон В.М. Древняя Бактрия.// Издательство “Наука” Ленинградское отделение, 1974

³ Axmedov M.K. Oʻrta Osiyo meʼmorchiligida tarixi.// T.; “Oʻzbekiston”1995

⁴ Nozilov D.A. Oʻrta Osiyo meʼmorchiligida odatlar, Qoidalar va ramziy ifodalar.//T.: 2011. “Sanʼat”

⁵ Uralov A.C. Гражданское зодчество средневековой Центральной Азии.//T.:2021.6 74

⁶ Mamatmusaev T. Oʻzbekiston tarixiy shaharlarining tipologik rivojlanishi. Monografiya. Toshkent: TAQI, 2019, - 216 bet.

⁷ Нурмухаммедова Ш.Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода.// Монография. Издательство “Fan va texnologiya”T.:2018.

⁸ FZ-201902192+201902197 “Qoʻngʻirot-Moʻynoq avtomobil yoʻl yoqalarining innovatsion landshaft dizayni yechimini ishlab chiqish” (2019-2021 y.y.) innovatsion loyihasi. Arx.f.d., prof. Z.Adilov rahbarligidagi loyiha.

⁹ Matniyazov Z.E. “Orolboʻyi mintaqasi turistik marshrut obyektlari arxitektura muhitini tashkil etish tamoyillari.” Arxitektura boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent: 2021.

¹⁰ Kashiripur M.M. “Анализ планировочной структуры малых городов Ирана” Журнал Наука и Техника. №5. 2014.

¹¹ Reyimbayev Sh.S. Xorazm shaharlarining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi arxitekturaviy-tarhiy tizimi.//Dissertatsiya. 2005.

¹² Шнекеев Ж.К.Архитектура жилищ Каракалпакстана.//Монография. Издательство “Fan va texnologiya”. T.:2018

¹³ Abubakr Nabil Abulalim. “Организация застройки на территориях со сложными ландшафтно-природными условиями в городах Йемена” архитектура fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. Moskva arxitektura instituti (davlat akademiyasi). M.:2009.

¹⁴ Фирсанов В.М.Архитектура гражданских зданий жарко-сухого климата.//М.:.-1982.

¹⁵ Ле Корбюзье.Архитектура XX века.// Монография. Издательство. “Прогресс” 1970

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlarda Orol bo‘yi mintaqasi me‘moriy-rejaviy, landshaft yechimlari qisman o‘rganilgan, lekin iqlim sharoitining murakkabligi inobatga olgan holda mintaqadagi hududlarning kompleks tarzda o‘rganish masalalari deyarli yoritib o‘tilmagan. Ya‘ni Qoraqalpog‘iston mintaqasida me‘moriy-rejaviy yechimlarning samaradorligini oshirish, shaharsozlikda aholining turmush tarziga xos kasbiy an‘anani tiklashda bosh rejalarni qayta ko‘rib chiqish, suvsizlik, chang va yer osti sizot suvlarining ko‘tarilishi asosida vujudga kelgan ekologik muammoni arxitektura va shaharsozlik jihatidan o‘rganish kabi masalalarga bag‘ishlangan kompleks tadqiqot olib borilmagan.

Mazkur dissertatsiya janubiy Orol bo‘yi mintaqasi shaharlari, xususan Qo‘ng‘irot, Mo‘ynoq, Xo‘jayli va Nukus shaharlarining me‘moriy-rejaviy yechimini takomillashtirish maqsadida mintaqqa iqlimi, landshafti va shaharsozlik tarixini demografik asosida tahlil qilish, urbanizatsiya jarayonlarini kompleks o‘rganishga, eski va yangi me‘moriy-rejaviy yechimlarni taxlil qilish, shaharsozlik, jamoat markazlari va muhandislik yo‘l-transport infratuzilmasining bugungi sharoitini o‘rganib loyihaviy takliflar berish uchun chuqurroq tahlil etishga qaratilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-201902192+201902197 “Qo‘ng‘irot-Mo‘ynoq avtomobil yo‘l yoqalarining innovasion landshaft dizayni echimini ishlab chiqish” (2019-2021 y.y.) innovatsion loyihasi mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Janubiy Orol bo‘yi mintaqasi shaharlarining hozirgi holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif qilish hamda shaharlarning me‘moriy-rejaviy barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Janubiy Orol bo‘yi mintaqasi shaharlarining me‘moriy-rejaviy tuzilishi va urbanizatsiya jarayonlarining hozirgi holatini tahlil qilish;

mintaqa shaharlarining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini aniqlash va ularning shaharsozlikka ta‘sirini baholash;

shaharsozlikda zamonaviy texnologiyalar va barqaror rivojlanish prinsiplarini qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish;

Janubiy Orol bo‘yi shaharlarining tarixiy merosini asrab-avaylash va zamonaviy shaharsozlik talablariga moslashtirish yo‘llarini ishlab chiqish;

mintaqa shaharlarining me‘moriy-rejaviy yechimlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflarni shakllantirish.

Tadqiqotning obykti sifatida janubiy Orol bo‘yi mintaqasi shaharlaridan Qo‘ng‘irot, Mo‘ynoq, Xo‘jayli va Nukus shaharlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Qo‘ng‘irot, Mo‘ynoq, Xo‘jayli va Nukus shaharlarining me‘moriy-rejaviy yechimlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada vizual tahlil, o‘lchov ishlari, fotosuratlar, adabiyotlarni o‘rganish, arxiv materiallari va ilmiy nashrlarni, Internet

resurslar va sun'iy intellektdan olingan ma'lumotlarni o'rganish va me'moriy-rejaviy yechimlarini baholash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Janubiy Orol bo'yi mintaqasi shaharlarining o'rta asrlardagi strukturaviy tuzilishi O'zbekistonning boshqa shaharlari kabi shakllanganligi Qo'ng'irot va Xo'jayli shaharlarining eski shahar qismining strukturaviy tuzilishi - ark, shahriston, rabod, registon maydoni kabilar orqali isbotlangan;

mintaqa shaharlarining me'moriy-rejaviy yechimlari, ularning shakllanish bosqichlari baholanib, shaharlarning strukturaviy tuzilishini takomillashtirishda kompleks yondashuvni qo'llash zarurati isbotlangan hamda Mo'ynoq shahrini me'moriy-rejaviy jihatdan konsentrik tugunlarni zichlash modeli asosida rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida shaharning shimol tarafida yashil buffer zonani tashkil etish zarurati asoslangan;

mintaqa shaharlarining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, Orol dengizi inqirozining shaharsozlikka salbiy ta'siri baholanib, hududlarning tarixiy merosini asrab-avaylash va zamonaviy shaharsozlik talablariga integratsiya qilish bo'yicha yangi yondashuvlar - Nukus shahrining me'moriy-rejaviy shaklini kombinatsiyalashgan strukturaga aylantirish, shimoliy-sharqiy tomoni qumlik yuzalariga yashil buffer zonalar tashkil etish taklif qilingan;

Qo'ng'irot shahari me'moriy-rejaviy yechimining joriy holati baholanib, shaharni janubiy-sharqiy tomonga rivojlantirish bo'yicha asoslangan taklif ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Janubiy Orol bo'yi mintaqasi shaharlarining me'moriy-rejaviy yechimini rivojlantirishda landshaft omillari va tabiiy iqlimiy sharoitlarni hisobga olgan holda tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Qo'ng'irot shahrining me'moriy-rejaviy yechimida chet el tajribalari asosida shaharni yashil belbog' bilan himoya qilish hamda shaharni janubiy-sharqiy tomonga aralash strukturada kengaytirish taklif etilgan;

Mo'ynoq shahrining me'moriy-rejaviy yechimi iqlim sharoitiga mos ravishda landshat qurilmalaridan himoya zonalarini tashkil etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot faoliyatining ishonchli manbalarni o'rganish va tahlil qilishga asoslanganligi, loyiha materiallari ko'rinishidagi rasmiy hujjatlar, dala kuzatuvlari, arxiv materiallari, jamoat muassasalari va tashkilotlarining rasmiy vakillari bilan shaxsiy aloqalar va suhbatlar, shuningdek Internet resurslardan olingan ma'lumotlardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog'iston arxitekturasi rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllangan vakuumni to'ldiradi va keng kitobxonlar, me'morlar, tarixchilar, amaliyotchi loyihachilar, restovartor mutaxassislar, shaharsozlar, dizaynerlar, oliy arxitektura maktablari talabalari uchun to'liq hajmda taqdim etiladi hamda bugungi kunda loyiha qurilish sohasida yuzaga kelgan muammolar va

respublikaning arxitektura amaliyoti va ularni chuqur ilmiy-tadqiqotlar asosida hal etish bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jamoat binolari va mikrarayonlardagi turar joylarni rekonstruksiya qilish, shaharsozlikda kanal va daryo sohillarini ta'mirlash, obodonlashtirish, jamoat turar joy va sanoat binolarining loyiha takliflarini bajarishda hamda oliy ta'lim muassasalarida arxitekturaviy loyihalash va shaharsozlik sohasidagi fanlar sohasida o'quv qo'llanmalar yaratishga xizmat qilish bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Janubiy Orol bo'yi mintaqasi shaharlarining me'moriy-rejaviy yechimini takomillashtirish mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Janubiy Orol bo'yi mintaqasi shaharlarining o'rta asrlardagi strukturaviy tuzilishi O'zbekistonning boshqa shaharlari kabi shakllanganligi Qo'ng'iroq va Xo'jayli shaharlarining eski shahar qismining strukturaviy tuzilishi - ark, shahriston, rabod, registon maydoni kabilar orqali isbotlanganligi hamda mintaqa shaharlarining me'moriy-rejaviy yechimlari, ularning shakllanish bosqichlari baholanib, shaharlarning strukturaviy tuzilishini takomillashtirishda kompleks yondashuvni qo'llash zarurati isbotlangan hamda Mo'ynoq shahrini me'moriy-rejaviy jihatdan konsentrik tugunlarni zichlash modeli asosida rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida shaharning shimol tarafida yashil buffer zonani tashkil etish zarurati asoslanganligi xususidagi takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi va "O'zshaharsozlik LITI" DM Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 19 avgustdagi 04-07/01-2677-son ma'lumotnomasi; "O'zshaharsozlikLITI" DM Qoraqalpog'iston Respublikasi filialining 2025 yil 22 avgustdagi 01-01/08-son dalolatnomasi). Natijada Orol bo'yi shaharlarining vujudga kelish va rivojlanish jarayonlari xususida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyati yaratilgan;

mintaqa shaharlarining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, Orol dengizi inqirozining shaharsozlikka salbiy ta'siri baholanib, hududlarning tarixiy merosini asrab-avaylash va zamonaviy shaharsozlik talablariga integratsiya qilish bo'yicha yangi yondashuvlar - Nukus shahrining me'moriy-rejaviy shaklini kombinatsiyalashgan strukturaga aylantirish, shimoliy-sharqiy tomoni qumlik yuzalariga yashil buffer zonalar tashkil etish taklif qilinganligi hamda Qo'ng'iroq shahari me'moriy-rejaviy yechimining joriy holati baholanib, shaharni janubiy-sharqiy tomonga rivojlantirish bo'yicha asoslangan taklif ishlab chiqilganligi xususidagi takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi va "O'zshaharsozlik LITI" DM Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 19 avgustdagi 04-07/01-2677-son ma'lumotnomasi; "O'zshaharsozlikLITI" DM Qoraqalpog'iston Respublikasi filialining 2025 yil 22 avgustdagi 01-01/08-son dalolatnomasi). Natijada Qo'ng'iroq

shaharining rejaviy yechimini takomillashtirish xususida ilmiy asoslangan takliflar yaratilgan.

Tadqiqotning aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta ilmiy amaliy konferensiya va seminarlarda, jumladan 5 ta xalqaro konferensiyada aprobatsiyadan o'tkazilgan. Shuningdek ilmiy ish Toshkent arxitektura-qurilish universitetining "Arxitektura yodgorliklari" kafedrasida va ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola nashr etilgan, jumladan 1 ta xalqaro jurnalda ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 2 jilddan iborat. I jild kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. II jild albom bo'lib, chizma loyihalar, rejalar, diagrammalar va fotosuratlarini o'z ichiga oladi. Asosiy matn 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Murakkab ekologik sharoitlarda shaharlarning me'moriy-rejaviy rivojlanish asoslari**» deb nomlangan va uchta bo'limdan tuzilgan. Uning birinchi bo'limida "*Janubiy Orol bo'yi mintaqasi shaharlarining tarixiy shakllanishi*" o'rganilib, tahlil qilingan.

Janubiy Orol bo'yi mintaqasida shaharlar va karvonsaroylarning paydo bo'lishiga karvon yo'llari katta ahamiyat kasb etgan. Bu karvon yo'llarida bir qancha karvonsaroylar paydo bo'lib, shaharlarning rivojlanish asosini yaratib bergan. Karvon yo'llar shu davrdagi Orol dengizini ikkita yo'nalish bo'ylab aylanib o'tgan bo'lib, biri shimoliy-g'arb va shimoliy-sharq tamon yo'naltirilgan. Ushbu yo'nalish bo'ylab Uchquduq, Ajigeldi, Qosbuloq, Beleuli, Churuk, Kuptam, Qosduduq kabi karvonsaroylar paydo bo'lgan. Bu karvon yo'llari yo'nalishi Qo'ng'iroq va Xo'jayli shaharlari ustidan o'tganligi bois aholi uchun qulay va yashash uchun ma'qul bo'lgan bo'lib, shaharlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan.

A. Butakovning 1848-1849-yillarda Xiva xonligi xaritasida Qo'ng'iroq va Xo'jayli shaharlari aks etganligini ko'rish mumkin. Bu shu davrlarda aholining Daryo sohillari va karvon yo'llarida ushbu shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir etgan. Orol bo'yi mintaqasidagi Qo'ng'iroq va Xo'jayli shaharlari Xiva xonligi xaritasida 1820-yildan 1873-yillar oralig'ida Xonlik tarkibida bo'lganligini ko'rish mumkin. 1959-yilgi Ingliz xaritasida Mo'ynoq,

Xo‘jayli, Nukus va Qo‘ng‘irot shaharlari aks etgan. Bu yillarda sobiq sovet davrida shaharlarning paydo bo‘lganligini va yangi logistik yo‘nalishlar paydo bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Shu davrda eski shaharlarni posyolka ko‘rinishiga keltirib, shaharga moslashtirish jarayonlari bo‘lgan. Qolaversa, Orol dengizining Amudaryo daryosining quyilish yo‘nalishida, yani dengiz bo‘g‘otida yangi port shahari, Mo‘ynoq shahri paydo bo‘lgan.¹⁶

Sobiq sovet davrida mintaqani markazlashgan shaklda boshqarish uchun Qoraqalpog‘istonning poytaxtini To‘rtko‘l shahridan Nukus shahriga o‘tkazish bilan, shahar ma‘muriy markaz shahri sifatida rivojlandi. Ushbu davrgacha Nukus qishloq hududi bo‘lib hisoblangan. Keyinchalik shahar tipidagi posyolka va keyinchalik ma‘muriy markaz shahri sifatida shakllandi.

Shaharlarning paydo bo‘lishiga suv va karvon yo‘llari ta‘sir etgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib Orol dengizi inqirozi tufayli shaharlarning rivojlanishiga o‘z aks ta‘sirini ko‘rsatmoqda. 1950-yillarning oxirini Orol dengizining sathini odatda ko‘lami jihatdan qancha suv yo‘qotganligini aniqlash sifatidagi mo‘ljal sifatida ishlatiladi. 1980-yillarning boshlaridagi tasvirlarda dengiz sathining pasayishi tezlashayotgani ma‘lum bo‘lgan. Suvning sho‘rlik darajasi ortib, baliq zahiralari kamaygan. 2000-yilga borib Orol dengizi Shimoliy va Janubiy dengizlariga bo‘linadi. Nafaqat suvning ko‘p qismini, ekin va baliq deyarli to‘xtatildi. 2015-yillarga borib, 1950-yillar oxiridagi suv hajmining atiga 8% qoldi.¹⁷

Qo‘ng‘irot shahrining tarixiy shakllanishi, qadimdan 1960-yilgacha Qo‘ng‘irot nomi bilan atalgan va shaharga temir yo‘l kirib kelishi bilan shahar yangi hududda shakllana boshlaganligi bois 1969-yilgacha shaharning yangi hududiga bog‘liq “Jeleznodorojniy” nomi bilan atalgan. 1969-yildan hozirgi kungacha Qo‘ng‘irot nomi bilan atalib kelmoqda. Eski va yangi shahar hududi 1955-1977-yillar davrida ikkiga ajralgan holda rivojlangan bo‘lsa, 1980-yildan shahar hududi to‘lib borgan. Huddi shu shaklda Xo‘jayli shahri hududi ham shakllanish bosqichidan o‘tib kelgan, yani o‘rta asrlarda shahar bozor hududi bilan birga shahar maqomi bilan shakllana boshlagan. Shahar hududiga temir yo‘l kirib kelishi bilan ushbu shahar atrofida yangi tartibli posyolka shaklidagi shahar paydo bo‘la boshlagan. Eski va yangi shahar hududlari 1980-yillardan boshlab qo‘shila boshlagan.

1870-yilgi Xiva xaritasida hozirgi kundagi Nukus shahrini qishloq aholi punkti sifatida tasvirlangan. 1955-1970-yillar oralig‘ida Nukus shahri ma‘muriy markazligi sabab boshqa shaharlarga nisbatan tez va jadal rivojlangan, yani shaharning eski qismini yangi hududga qo‘shilib, eski hudud deyarli yangi hududga aylandi. 1980-yillarda shahar chiziqli shahar struktura shaklida kengayishni boshladi. Nukus shahri hozirgi kunda chiziqli-to‘g‘ri burchakli shaklda rivojlanib kelmoqda.¹⁸

¹⁶ Mamatmusayev T.Sh. O‘zbekiston tarixiy shaharlarining tipologik rivojlanishi. Monografiya. Toshkent: TAQI, 2019, - 216 bet.

¹⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBng%CA%BBirot#cite_note-:0-3

¹⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBng%CA%BBirot#cite_note-:0-3

Mo'ynoq shahri 1933-yildan Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qomitasining qarori bilan Mo'ynoq qishlog'i ishchi posyolkasi toifasiga kiritilib, 1950-yildan shahar tipidagi posyolka maqomini olgan, 1963-yilda shahar maqomi berildi va shahar chiziqli strukturada shakllandi. Shahar 1980-yilning o'rtalarigacha Orol dengizining janubiy qirg'og'idagi rivojlangan baliqchilik port shahri bo'ldi.

Birinchi bobning "*Murakkab ekologik-iqlimiy sharoitdagi xorijiy tajribalar: Eron, Yaman va BAA shaharlarining zamonaviy rejalashtirish yondashuvlari*" deb atalgan ikkinchi bo'limida murakkab ekologik sharoitlarda shahar va shaharchalarni tashkil etilishda va rivojlantirishda chet el tajribalari o'rganilgan.

Rudbar shahri Eronning Gilan viloyatida tarqoq shaklida joylashgan shahar bo'lib, bu mintaqadagi shaharlarni rejalashtirishda eski shaharlarni yangi shahar hududiga qo'shishda tajriba sifatida o'rganilgan.

Dezful shahri Eronning Xuzeston viloyatida shahar tuzilmasining to'g'ri burchakli-diagonal tizimiga ega bo'lib, janubiy Orol bo'yi mintaqasida shaharlarida strukturaviy shakllarini moslashtirishda tajriba sifatida o'rgailib chiqildi. Gombad-e-Kovus shahri Eronning Goleston viloyatidagi shahar tuzilmalarining to'g'ri burchakli tizimi shaklida bo'lib, hududning tabiiy-iqlimiy sharoitlariga nisbatan moslashish imkonini yaratuvchi shakl sifatida o'rganildi. Ushbu shahar Eronning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, shahar eski va yangi hududlarga ajralgan holda rivojlangan. Shahar erkin (organik) strukturaviy shaklda bo'lib, shahar hududi rejalashtirishning kompakt shaklida, yangi va eski hududlarni birlashtirishda muhim ro'l o'ynagan. Shushtar shahri Kamran Diba (DAZ Architects) tomonidan shahar renovatsiya loyihasida eski va yangi hududlarni birlashtirishda va shaharni kompakt shaklda shakllantirishda samarali tajribalarini ko'rsatib o'tgan. Yani shahar o'rtasida ko'chani eski hududdan yangi hududgacha bo'lgan masofada piyodalar uchun qulay gastronomik shaklda yechim berilgan bo'lib, avtomobillarga bu ko'chalarda harakatlanishga cheklov berilgan. Ko'cha jamoat markazlari va turar-joy hududlarini mukammal darajada bog'lab bergan. Bu ko'chalarda piyodalar uchun quyoshdan himoya vositalari sifatida binolarning fazoviy-kompozitsiyasidan foydalanilganini ko'rish mumkin. Ko'chalar Erkin gorizontol kengayishga asoslangan arxitektura inson masshtabini saqlagan holda oson kirish va rang-barang ko'rinishlarni taqdim etish imkonini beruvchi diagonal sirkulyatsiya qilingan.¹⁹ Shushtarda shaharsozlikning ikki konsepsiyasini taqqoslash-geometriya, vertikallik, balandlik bo'yicha arxitektura (zamonaviy shahar arxitekturasi) bilan shaharning fazoviy-kompozitsion echimini ko'rishimiz mumkin. Shaharda fazoviy yacheykalarning bog'lanishini eng ajoyib echim bilan ko'rinish beradi.

Iroqning Kurdiston mintaqasining markazi Erbil shahri shahar rejasining radial-halqasimon shaklda bo'lganligi issiq o'lkali shaharlardagi eng murakkab echim sifatida bo'lib, bunday rejaviy strukturalar odatda iqlim-sharoitlariga juda mos tushmasligi, geografik joylashuvda tabiiy rel'efning shahar strukturasi juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu janubiy Orol bo'yi mintaqasida aholisi 500 mingdan ortishi kutilayotgan shaharlarda qisman qo'llash mumkin bo'ladi.

¹⁹ DAZ Architects, Planners, and Engineers - Kamran Diba. Shushtar New Town. The Aga Khan Award for Architecture. 1977. Tehran, Iran

Erondagi Yazd shahri qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, bu shaharda eski binolar Eron arxitekturasining qiyofasini ko‘rsatib turadi. Bu shaharda binolarda insolyatsiya texnologiyasi sifatida qadimdan qo‘llanilgan usul badjirlar bo‘lib, ular binoni sovitish tizimi sifatida ishlaydi. Badjirlar 5-30 metrgacha baland bo‘lib, shamolni ushlab ventilyatsiya tizimi orqali qalin terilgan g‘ishtlar orasidan xonalar sovutib turgan. Bunday badjirlar Yazd shahrida 700 tadan ortiq bo‘lib, bu usul hozirgi kungacha samarali usul sifatida qaraladi.

Yurtimizdagi qadimiy Xiva shahridagi Ichan qal‘a tarixiy qismida ulug‘ ayvonlar xonadonlarni sovutish tizimi vazifasini bajargan. Bu binoning kompozitsion echimida ham ajoyib shaklda ko‘rinish berib turadi. Ulug‘ ayvonlar shimol tomonga qaratilgan bo‘lib, burchakli, terassali va burchakli ulug‘ ayvon ko‘rinishlarida bo‘lgan. Bu ham Yazd shahridagi badjirlar kabi shamolni ushlab xonadon ichida sirkulyatsiya qilgan. Bunda xonadon yacheykalariga ham sirkulyatsiya jarayoniga mos ravishda yechim berilgan.

Shaharlarni rejalashtirish tuzilmasi shaharsozlik hujjatlarini (bosh rejalar va batafsil rejalashtirish loyihalari) ishlab chiqish jarayonida ularning rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Eronning kichik shaharlari bo‘yicha mavjud tadqiqotlar me‘moriy meros masalalarini yoritadi, ammo kichik shaharlarni rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini, masalan, ularning reja shakli, ko‘chalar tarmog‘i va ularning konfiguratsiyasini qamrab olmaydi. Kichik shaharning rejalashtirish tuzilmasi uning barqaror rivojlanish salohiyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi hali aniqlanmagan.²⁰ Shahar rejasining tuzilishi karkas (urbanizatsiyalashgan va tabiiy) va uning to‘ldiruvchisi - qurilgan hududlar hamda ochiq maydonlardan iborat bo‘lib, bular shahar to‘qimasi deb ataladi va unda turli funksional vazifali zonalar ajratiladi.

Birinchi bobning *“O‘zbekistonning ekologik jihatdan noqulay hududlaridagi shaharlarning hozirgi holati va ularni rivojlantirishdagi muammolar”* deb nomlangan uchinchi bo‘limida Zarafshon, Uchquduq va Marjonbuloq shaharlarining me‘moriy-rejaviy, fazoviy-kompozitsion echimlari o‘rganilgan.

O‘zbekistondagi Arid (qurg‘oqchil) shaharlari sifatidagi Zarafshon, Uchquduq va Marjonbuloq shaharlari me‘moriy-rejaviy echimlarini o‘rganish davrida, bu shaharlarning tarixiy shakllanishi va sanoat korxonalariga bog‘liqligi o‘rganib chiqildi.

Zarafshon shahri qurilishi 1960-yillarning boshlarida boshlangan. Shahar Qizilqum cho‘lining markaziy qismida, mamlakatning eng yirik oltin koni hisoblangan “Muruntov” dan 30 km uzoqlikda joylashgan. 1965-yil shahar tashkil etilganining rasmiy yili hisoblanadi. 1967-yil 16-yanvarda Zarafshon shahar tipidagi aholi punkti maqomini oladi. Shaharda Amudaryodan suv 250 km ga yaqin ta‘minot tizimi quvurlari bilan ta‘minlangan. Shahar rejasi shakliga ko‘ra to‘g‘ri burchakli strukturaviy shaklda bo‘lib, kompakt rejada shakllangan. Shahar kichik tumanlardan

²⁰ Kashiripoor M.M. Анализ планировочной структуры малых городов Ирана. Наука и техника. №5. 85-91 2014.

tashkil topgan bo‘lib, shaharda temir yo‘l va aeroport mavjud. Ushbu jihatlar shaharning urbanistik rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda.

Uchquduqning paydo bo‘lishi 1950-yillarda muhandis Aleksandr Matveyev tomonidan uran konlarini topilishi bilan bog‘liq. Shahar Qizilqum cho‘lining markaziy qismida, Uchquduq temir yo‘l vokzalidan 12 km uzoqlikda joylashgan. 1956-yildan shaharcha qurilishi boshlangan. Birinchi qurilgan binolar 11-daha hududidagi suv ta‘minoti inshooti va vaqtinchalik turar-joy va madaniy binolar majmuasi hisoblanadi. 1961-yil 2-martda Uchquduq Buxoro viloyati tarkibida shahar tipidagi posyolkaga aylangan. 1978-yilda Uchquduq shahar maqomini olgan. 1979-yilgacha yopiq maxfiy strategik obyekt maqomiga ham ega bo‘lgan. 1982-yil 20-aprelda esa Buxoro va Samarqand viloyatlarining bir qismidan Uchquduqni o‘z ichiga olgan Navoiy viloyati tashkil etilgan.²¹

Uchquduq shahri rejasiga ko‘ra, chiziqli shaklda keyinchalik esa to‘g‘ri burchakli shaklda me‘moriy-rejaviy echim bilan shakllangan. Shaharda temir yo‘l va shahardan 12 km uzoqlikdagi yopiq shakldagi aeroport mavjud. Shaharga suv ta‘minoti Amudaryodan suv quvurlari va shahar atrofi tabiiy artizan quduqlari orqali ta‘minlangan. Bunday hududlarda hududni ko‘kalamzorlashtirish ancha qiyin bo‘ladi. Shahar 3-, 5-, 6-, 7-, 11-, 12-, 13-dahalardan tashkil topgan. Bu dahalarda urbanistik rivojlanish deyarli yaxshi holatda va kelajakda rivojlanishni samarali davom ettirish mumkin.

Marjonbuloq shaharchasi - O‘zbekistonning Jizzax viloyatidagi shahar tipidagi aholi punkti, G‘allaorol tumaniga kiradi. “Bogarnoye” temir yo‘l stansiyasidan 8 km uzoqlikda (Samarqand - Jizzax yo‘nalishida) joylashgan. Shaharcha 1979-yili oltin qazib olish sanoatining markazi sifatida vujudga kelgan. 1980-yilda Marjonbuloq shahar maqomini oladi. Keyinchalik u bu maqomini yo‘qotib, shahar tipidagi shaharchaga aylandi. Marjonbuloq shaharchasi shahar rejasi shakliga ko‘ra chiziqli shaklda bo‘lib, shaharning asosiy rivojlanishi yirik sanoat korxonalarini bilan bog‘liq. Shaharcha atrofidan temir yo‘l o‘tgan bo‘lib, shaharcha uchun shaharlar-aro transport vazifasini bajarishi bilan birga yuk tashish uchun ham mo‘ljallangan. Hudud atrofidan Katta Kursoy daryosi o‘tgan bo‘lib, shaharning mavsumiy suv ta‘minotini ta‘minlaydi. Hudud deyarli lalmi yerlar toifasiga kiritilgan va geografik joylashuvi jihatdan tabiiy rel‘efi tog‘li hudud hisoblanadi. Shaharcha asosan kam qavatli turar-joylar bilan shakllangan.

Dissertatsiyaning **“Janubiy Orol bo‘yi mintaqasi shaharlarining me‘moriy-rejaviy yechimiga ta‘sir etuvchi omillar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobi uchta bo‘limdan iborat. Ikkinchi bobning *“Shaharlarning me‘moriy-rejaviy rivojiga ta‘sir qiluvchi ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar”* deb nomlangan birinchi bo‘limida janubiy Orol bo‘yi mintaqasi shaharlarining me‘moriy-rejaviy yechimlariga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rganilib, unga ta‘sir qiluvchi omillarni yumshatishga tavsiyalar berildi. Qo‘ng‘irot, Mo‘ynoq va Nukus shaharlarining urbanistik tuzilmasi tahlil qilinib, aholi soni, zichligi, hudud maydonlari, aholi soning yoshga doir nisbati va tug‘ilish koeffitsienti, hududlarning

²¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBng%CA%BBirot#cite_note-:0-3

tabiiy landshafti va o'simliklari, rel'efi, iqlimning bugungi kundagi muammolari va bu muammolarni bartaraf etish masalalari ko'rib chiqilgan.

Qo'ng'iroq shahrining hududi 3240 ga va aholi soni 86,6 ming kishi bo'lib, aholi zichligi 2672 kv/kishi. 0-6 yoshdagilar - 13,4%, 7-15 yoshdagilar - 20,3%, 16-59 yoshli mehnatga layoqatli yosh qatlami - 56,2% bo'lsa, nafaqa yoshdagilar - 11,1 % ni tashkil etgan. Shaharga ko'chib kelganlar soni 430 tani tashkil etsa tug'ilish koeffitsienti 19,46 promille. Xo'jayli shahri maydoni 3126 ga va aholi soni 82,2 ming kishi, aholi zichligi esa 2630 kv/kishi bo'lsa aholisining yoshga nisbati quyidagicha: 0-6 yoshdagilar - 11,0%, 7-15 yoshdagilar - 16,4%, 16-59 - yoshdagilar - 61,8%, nafaqadagilar - 10,8 % ni tashkil etadi. Xo'jayli shahri Qoraqalpog'iston hududidagi aholisi ko'p shahar sifatida qaraladi.²²

Nukus shahri Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti sifatidagi ma'muriy shahar sifatida aholisi eng ko'p shahar hisoblanadi. Nukus shahrining hududi 12507 ga bo'lib, aholisi 344,7 ming kishini tashkil etib, aholi zichligi 2756 kishi, yoshga doir nisbatlari: 0-6 yoshdagilar - 13,5%, 7-15 yoshdagilar - 15,7%, 16-59 yoshdagilar - 61,9%, nafaqadagilar - 8,9% ni ko'rsatsa, ko'chib kelganlar 4016 kishini tashkil etadi. Shaharda aholining tug'ilish koeffitsienti 19,65 promilleni tashkil etadi.

Mo'ynoq shahri maydoni 555 ga bo'lib, aholi soni 15,1 ming kishi bo'lsa, zichligi 2720 kv/kishi, 0-6 yoshdagilar - 16,4%, 7-15 yoshdagilar - 16,3%, 16-59 yoshdagilar - 58,8%, nafaqadagilar - 8,5% ni tashkil etadi. Shaharga ko'chib kelganlar 138 kishi, tug'ilish koeffitsienti 21,57 promilleni tashkil etadi.²³

Janubiy Orol bo'yi mintaqasi shaharlarida tabiiy landshafti va o'simliklari deyarli bir hil bo'lib, cho'l va sho'rhok yerlarni tashkil etadi. Qo'ng'iroq, Xo'jayli va Nukus shaharlari hududlari madaniy landshaft hududiga kirsa, Mo'ynoq shahri hududi landshafti sho'rhok hisoblanadi. Qo'ng'iroq va Xo'jayli hududlarida vohali, sug'oriladigan va bo'z yerlar o'simliklari bo'lsa, Nukus va Mo'ynoq hududlarida Daryo vodiylarining to'qay va botqoq o'simliklari o'sadi. Bu hududlarda iloq-saksavuli, qora saksavul, yantoq, juzg'un, sho'ra, kavrak, qizilmiya va qandim o'simliklari mavjud.

Janubiy Orol bo'yi mintaqasida 2018 yili may oyida sodir bo'lgan katta hajmdagi tuzli qum bo'roni mintaqa ekologiyasiga jiddiy zarar etkazdi. Bunday ekologik muammolarga arx.f.d. J.Shnekeev tomonidan taklif etilgan ko'chma piramidalar echimi sifatida qaralishi mumkin.

Qozog'istonning poytaxti Ostona shahrining me'moriy-rejaviy yechimini ishlab chiqishda arxitektor Kise Kurokava loyihasida Ishim daryosi bo'ylab yashil yo'lakni shakllantirish g'oyasi taklif etilgan. Bu yo'lak shahar uchun Eko-yo'lak bo'lib xizmat qiladi. Yangi qurilayotgan hudud atrofida yashil belbog' yaratilib, u shaharni qishda kuchli shamollardan, yozda chang bo'ronlaridan himoya qiluvchi Eko-o'rmon vazifasini o'taydi.

²² Qo'ng'iroq shahri bosh rejasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. "O'zshaharsozlikLITI" DM ma'lumotlari asosida. T: 2020 y.

²³ Mo'ynoq shahri bosh rejasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. "O'zshaharsozlikLITI" DM ma'lumotlari asosida. T: 2020 y.

Teng Wang tadqiqoti bo'yicha o'tgan 80 yil ichida Orol dengizi bir milliard tonnadan ortiq suvni yo'qotgan (bu Misrdagi bir yuz ellik Xeops piramidasi og'irligiga teng) va bu huddi prujina kabi yer qobig'ining ko'tarilishiga sabab bo'lgan. 2016 va 2020 yillar oralig'ida o'tkazilgan sun'iy yo'ldosh o'lchovlari yiliga o'rtacha 7 mm ga o'sadigan 500 km radiusli do'nglik aniqlandi. Bu esa tabiatning qayta balans qilishi bilan tushunish mumkinligi aytib o'tiladi.²⁴

Ikkinchi bobning *“Janubiy Orolbo'yi shaharlarining mavjud holati: Xo'jayli, Mo'ynoq va Nukus shaharlarining urbanistik tuzilmasi tahlili”* deb nomlangan ikkinchi bo'limida shaharlarning me'moriy-rejaviy yechimlari tahlil qilinadi.

Nukus shahri hududi 12507 ga ni tashkil etib shahar rejasiga ko'ra chiziqli shaklda qurilgan. Hozirgi kunga kelib shahar to'g'ri burchakli rejaviy yechimga keltirilgan. Shaharda asosiy uchta ko'cha mavjud bo'lib, ular A.Dosnazarov, To'rtko'l guzari va Ernazar Alako'z ko'chalari hisoblanadi. Shaharning umumiy yashil hududlari 2165 ga ni tashkil etib, shundan dala, mevali bog' va uzumzorlar 1331,93 ga, istirohat va ko'ngil ochar bog'lar va boshqa umumiy foydalanishda bo'lgan yashil maydonlar 73,1 ga, sanitar-muhofaza hududlar 700 ga, magistral avtomobil yo'llarning yashil hududlari 60,2 ga tashkil etadi. Turar-joy fondining umumiy maydoni 5623,2 ming kv/m, shundan 1 qavatli yakka tartibdagi uylar 4214,3 ming kv/m, 2 qavatli yakka tartibdagi uylar 144,53 ming kv/m, 4-5 qavatli turar-joylar 1223,2 ming kv/m va 9 qavatli turar-joylar 10,84 ming kv/m ni tashkil etadi. Nukus shahri aholisining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minganligi 92,3% ni tashkil etib, markazlashgan suv inshootlari 3 ta, magistral suv tarmoqlarining uzunligi 469,9 km, ta'mir talab suv tarmoqlari 153,9 km va o'rtacha suv o'tkazuvchanligi 65,05 ming m³ miqdorni tashkil etmoqda. Aholining markazlashgan oqova tizimi bilan ta'minlanganligi 30% ni tashkil qilsa, shundan o'zi oqar oqova quvurlari uzunligi 78,54 km, bosimli oqova quvurlarning uzunligi 51 km, oqova nasos stansiyalarining soni 28 ta, oqova tozalash inshooti 1 ta, o'rtacha kunlik oqova miqdori 10,53 m³ ni tashkil qiladi. Nukus shahrida transport infratuzulmasi 90,35 km, shahar ahamiyatidagi magistral ko'chalar uzunligi 65,4 km, shahar ko'cha tarmoqlarining zichligi 0,80 km/km², shahar ahamiyatidagi magistrallar zichligi 0,60 km/km² ni tashkil etadi. Shaharda umumiy sig'imi 9915 o'rinlik 43 ta maktabgacha ta'lim muassasalari bo'lib, umumiy hududi 36,3 ga ni tashkil etadi. 40111 o'rinlik 45 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari hududi 100 ga ni tashkil etmoqda.²⁵

Mo'ynoq shaharchasi hududi 555 ga bo'lib, shundan umumiy yashil maydonlar hududi 24,5 ga bo'lib, istirohat va ko'ngil ochar bog'lar va boshqa umumiy foydalanishda bo'lgan yashil maydonlar 7,9 ga, magistral avtomobil

²⁴ Tang wang. “Weak asthenosphere beneath the Eurasian interior inferred from Aral Sea desiccation” Nat. Geosci. 18, 351–357 2025.

²⁵ Nukus shahri bosh rejasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. “O'zshaharsozlikLITI” DM ma'lumotlari asosida. T: 2020 y.

yo'llari 14 ga, suv havzalari 2,6 ga ni tashkil qilmoqda. Shaharning sanitar-muhofaza hududi yo'qligi shahar uzbanizatsiyasiga juda katta xavf solib kelmoqda.

Shahar turar-joy fondi umumiy 249,75 ming km² bo'lib, asosan 1 va 2 qavatli yakka tartibdagi uylar 238,5 ming km² - 95,5% ni va 2 qavatli seksiyali uylar 11,25 ming km² - 4,5 % ni tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari umumiy 4 ta bo'lib, hududi 1,4 ga, 405 o'rinni tashkil etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5 ta, hududi 10,3 ga, 2720 o'rinni tashkil etmoqda. Shaharning magistral tarmoqlarining uzunligi 33,1 km ni, shahar ahamiyatidagi magistral ko'chalar 8,2 km, shahar ko'cha tarmoqlarining zichligi 5,6 km/km², shahar ahamiyatidagi magistrallar zichligi 1,4 km/km² ni tashkil etadi. Shaharning suv ta'minotida 1 ta markazlashgan suv inshooti, 47 km uzunlikdagi umumiy suv tarmoqlari, ta'mir talab tarmoqlari 20 km ni, o'rtacha kunlik sarf 1,9 ming m³ ni tashkil etadi. Aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 68,3% ni tashkil etsa, aholi oqova tizimi bilan ta'minlanmagan.²⁶

Xo'jayli shahri hududi 3455 ga bo'lib, aholi zichligi 2630 kv/kishini tashkil etadi. Shahar rejasi aralash. Shahar ko'chalari asosan to'g'ri chiziqli va markaz tomon yo'naltirilgan.²⁷ Shaharning yangi qismining paydo bo'lishi va rivojlanishiga shimoldan janub tomonga o'tgan temir yo'l liniyasi bo'lib, u hozirgi kunda shaharlar-aro va davlatlar-aro yo'nalishlarda, tranzit va mahalliy yuklarni tashishda ishlatiladi.

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limi "*Qo'ng'iro't shahrining urbanistik tuzilmasini tahlili*" deb nomlanib, Qo'ng'iro't shahrining hududiy joylashuvi, me'moriy-rejaviy yechimi, strukturaviy tuzilishi o'rganib chiqilgan.

